



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024-yil
yanvar-aprel



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-aprel)

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi – 66,2 %**



**Aholi jon boshiga
xizmatlar hajmi –
1 936,8
ming so'm**




**Xizmatlar
sohasidagi
korxonalar va
tashkilotlar
ulushi – 69,8 %**




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-may holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-aprel)



Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va tashkilotlar (1-may holatiga ko'ra)



Soni, birlikda

2024

12 728

2023

12 930

2022

14 251

2021

12 683

2020

10 234

Soni, birlikda

2024

939

2023

780

2022

915

2021

1 132

2020

1 067

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar-aprel)

2024

58,5 %


Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi

46,4 %

2020

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾


(yanvar-aprel)



■ Hajmi, mlrd. so'mda  O'sish sur'ati

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024-yil yanvar-aprel)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023-yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-aprel)

Hududlar nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Surxondaryo viloyati ¹⁾	5 586,5	100,0	109,4
Termiz sh.	1 555,1	27,8	106,5
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	226,6	4,1	110,9
Angor	235,3	4,2	110,7
Boysun	176,8	3,2	111,5
Bandixon	128,3	2,3	111,0
Muzrabot	249,9	4,5	110,2
Denov	720,6	12,9	110,8
Jarqo'rg'on	315,9	5,7	111,2
Qumqo'rg'on	342,2	6,1	108,2
Qiziriq	207,8	3,7	109,5
Sariosiyo	333,4	6,0	108,9
Termiz	261,2	4,7	112,7
Uzun	232,8	4,2	109,4
Sherobod	302,5	5,4	111,2
Sho'rchi	298,1	5,2	111,9


¹ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-aprel)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024-yil yanvar-aprel)




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-aprel)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **66,2** foizni, shu jumladan, **13,2** foizini kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024-yil yanvar-aprel)




Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-aprel)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	5 586,5	100,0	109,4
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	291,5	5,2	118,1
Moliyaviy xizmatlar	1 199,3	21,5	103,5
Transport xizmatlari	850,5	15,2	111,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	759,5	13,6	108,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	208,0	3,7	108,8
Savdo xizmatlari	1 969,9	35,3	112,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	128,3	2,3	108,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	232,6	4,2	100,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	75,1	1,3	108,8
Ijara xizmatlari	109,3	2,0	110,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	140,5	2,5	109,0
Shaxsiy xizmatlar	172,7	3,1	111,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	69,0	1,2	84,4
Boshqa xizmatlar	139,8	2,5	117,6

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-aprel)




Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024-yil yanvar-aprel, mlrd. so'mda)

Termiz sh	545,5
Denov	171,0
Qumqo'rg'on	97,5
Sariosiyo	74,2
Jarqo'rg'on	46,2
Sho'rchi	41,6
Sherobod	40,2
Uzun	32,4
Muzrabot	28,8
Termiz	25,1
Angor	24,3
Oltinsoy	21,6
Qiziriq	19,6
Boysun	18,8
Bandixon	12,5

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024-yil yanvar-aprel)

Yordamchi moliyaviy faoliyat



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024-yil yanvar-aprelida 95,2** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **45,5** foizni yoki **545,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan Boysun tumanida yuqori o'sish sur'ati **109,9** foizni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **89,3** foiz.

Termiz shahrida transport xizmatlari hajmi **151,9** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **111,4** foizni tashkil etgan.

Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-aprel)



Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024-yil yanvar-aprel)


Termiz sh	151,9	+11,4 %
Denov	95,0	+9,0 %
Jarqo'rg'on	65,8	+15,2 %
Termiz	60,9	+15,6 %
Sho'rchi	56,2	+28,0 %
Sariosiyo	52,5	+8,0 %
Qumqo'rg'on	51,4	+7,7 %
Sherobod	51,0	+9,0 %
Muzrabot	43,8	+11,7 %
Angor	42,3	+9,5 %
Uzun	40,6	+8,4 %
Qiziriq	39,4	+9,2 %
Oltinsoy	38,6	+10,3 %
Boysun	34,6	+9,0 %
Bandixon	26,5	+8,5 %

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi %da

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-aprel) ¹⁾

2024-yilning yanvar-aprel oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **759,5** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,6 %** ni tashkil etdi.



Termiz sh	137,9	+7,4 %
Denov	88,0	+8,2 %
Sariosiyo	50,3	+6,5 %
Sherobod	49,9	+10,1 %
Jarqo'rg'on	49,5	+9,6 %
Qumqo'rg'on	49,0	+7,8 %
Sho'rchi	44,2	+7,2 %
Angor	41,0	+9,7 %
Uzun	39,7	+9,1 %
Qiziriq	38,3	+10,0 %
Muzrabot.	38,0	+9,5 %
Termiz	37,2	+9,0 %
Oltinsoy	36,7	+8,2 %
Boysun	34,0	+9,8 %
Bandixon	25,8	+9,2 %

Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari (2024-yil yanvar-aprel)



2024-yil yanvar-aprel oylarida yo'lovchi avtomobil transporti xizmatlari ulushi **67,7** foizga yetdi.


Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida katta qismi taksi xizmatlariga to'g'ri keladi – **63,8 %**.

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2024-yil yanvar-aprel oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining **83,4** foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-aprel)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024-yil yanvar-aprel)



Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi %
Termiz sh	373,7	+21,6 %
Denov	263,8	+13,4 %
Muzrabot	125,3	+9,4 %
Sherobod	123,9	+11,3 %
Sariosiyo	119,7	+8,2 %
Jarqo'rg'on	118,9	+11,4 %
Sho'rchi	116,1	+11,9 %
Qumqo'rg'on	111,5	+6,4 %
Angor	102,8	+12,3 %
Oltinsoy	101,6	+13,0 %
Qiziriq	95,5	+9,5 %
Uzun	94,0	+10,0 %
Termiz	93,4	+11,4 %
Boysun	70,5	+12,1 %
Bandixon	59,2	+12,1 %

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sishi %da

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-aprel)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024-yilning yanvar-aprel** oylaridagi ulushi **91,9 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024-yil yanvar-aprel)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi %da
Termiz sh	46,2	+70,9 %
Denov	38,2	+7,1 %
Qumqo'rg'on	22,8	+13,5 %
Sariosiyo	22,6	+12,7 %
Jarqo'rg'on	22,3	+17,6 %
Sherobod	18,9	+15,2 %
Oltinsoy	18,1	+7,1 %
Sho'rchi	18,1	+2,8 %
Uzun	16,9	+8,0 %
Muzrabot	13,6	+13,6 %
Angor	12,7	+12,2 %
Boysun	11,9	+20,6 %
Qiziriq	11,2	+7,9 %
Termiz	10,6	+23,0 %
Bandixon	7,4	+18,3 %

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda


O'sishi %da

OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami (2024-yil yanvar-aprel)

Muqobil to'plam ko'rsatkichlarining nomi	Hajmi, <i>mld. so'mda</i>	Umumiy hajmdagi ulushi, % da
Jami	291,5	100,0
shu jumladan:		
AKT xizmatlari sektori	284,1	97,5
shu jumladan:		
Telekommunikatsiya xizmatlari	261,0	91,9
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	23,1	8,1
Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori	7,4	2,5
shu jumladan:		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari	3,9	52,7
Kino-videofilmlar va televideniya dasturlari ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari	0,4	5,4
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	0,5	6,8
Boshqa axborot xizmatlari	2,6	35,1

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-aprel)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024-yil yanvar-aprel** oylaridagi ulushi **60,0** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar


(2024-yil yanvar-aprel, mlrd. so'mda)

Termiz sh	108,5
Denov	46,1
Termiz	16,0
Sherobod	11,1
Sho'rchi	11,0
Jarqo'rg'on	6,7
Sariosiyo	5,6
Qumqo'rg'on	4,9
Uzun	4,6
Qiziriq	4,0
Angor	4,0
Oltinsoy	3,6
Boysun	3,0
Muzrabot	2,7
Bandixon	0,8


Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Termiz shahriga to'g'ri keladi. **2020-yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan mazkur hududda ushbu xizmat turi hajmi **160,5** mlrd. so'mga oshdi va ko'rib chiqilayotgan davrda **108,5** mlrd. so'mga yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **46,6** foiziga yetdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, **2024-yil yanvar-aprel** oylaridagi ulushi **47,2 %** ni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari **36,9 %** ni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar **15,9 %** ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-aprel)




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar-aprel)




Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar-aprel)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **95,9** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024-yil yanvar-aprel)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda


○ O'sishi

2024-yil yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi **3,7 %** ni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **89,3 foiz**.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-aprel)




Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024-yil yanvar-aprel)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlangan hajmlarni hisobga olgan holda

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-aprel)



■ Hajmi, mlrd. so'mda



O'sishi (kamayishi)

Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024-yil yanvar-aprel)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda

◆ O'sishi

Huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-aprel, mln so'mda)




2024-yil yanvar-aprel oylarida huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar hajmi **2056,7** mlrd. so'mga yetdi.



Huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar


(2024-yil yanvar-aprel, mln so'mda)



Ushbu xizmatlar hajmining salmoqli qismi Termiz shahri hissasiga to'g'ri keldi, uning huquq va buxgalterlik hisobi sohasida ko'rsatilgan xizmatlar jami hajmidagi ulushi **66,1** foiz yoki **1358,7** mln so'mni tashkil etdi.

Bandixon tumani bo'yicha huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar hajmi **1,5** mln so'm darajasida qayd etildi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-aprel)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **33,3** foizini tashkil etadi.


Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024-yil yanvar-aprel)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi
Termiz sh	25,3	+3,2 %
Denov	15,8	+8,0 %
Sariosiyo	9,2	+9,0 %
Sho'rchi	9,1	+12,0 %
Qumqo'rg'on	9,1	+10,7 %
Jarqo'rg'on	9,0	+11,5 %
Sherobod	8,6	+9,5 %
Angor	8,1	+10,7 %
Uzun	7,6	+9,6 %
Oltinsoy	7,6	+10,6 %
Muzrabot	6,9	+9,9 %
Qiziriq	6,5	+11,4 %
Termiz	6,4	+12,6 %
Boysun	6,2	+11,8 %
Bandixon	5,1	+12,3 %

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ◆ O'sishi

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-aprel)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar-aprel, mlrd. so'mda)



2020-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **47,8** mlrd. so'mga oshib, **69,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **70,9** foizni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 76-225-65-91

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Huquq va buxgalteriya sohasidagi xizmatlar hajmi – bu huquq sohasidagi bozor xizmatlaridan, mijozlarga ularning qonuniy huquq va majburiyatlari hamda boshqa huquqiy xizmatlar bo'yicha maslahat berishdan, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritishdan, buxgalterlik hisobi va audit, soliq deklaratsiyalarini tayyorlashdan olingan daromadlar miqdori demakdir.

Yuridik xizmatlar hajmi fuqarolik, jinoiy ishlarda, mehnat tortishuvlarida maslahat xizmati ko'rsatish va vakillik qilishni, shuningdek, yuridik hujjatlarni tayyorlash, sud ijrochilari, hakamlik sudyalari, inspektorlar va sudyalarning xizmatlari, sudlarda va boshqa sud organlarida advokatlar kollegiyasining a'zolari bo'lgan yoki ularning nazorati ostidagi shaxslar tomonidan yuridik vakillik va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari narxini o'z ichiga oladi.